



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2025-yil 17-iyul

03/22-4/1-6441-son

Toshkent shahridagi
oliy ta’lim tashkilotlariga

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, joriy yilning 21-iyul sanasida Raqamli texnologiyalar vazirligi binosi, “Kongress Hall” zalida tashkil etilayotgan “O‘zbekistonda IT va raqamli ta’lim landshaftini yaxshilash: Tadqiqot bosqichi” loyihasi yakuniga bag‘ishlangan forumda ushbu sohaga qiziqish bildirgan Toshkent shahrida joylashgan oliy ta’lim tashkilotlari talabalarini jalb qilishda amaliy yordam berishni so‘rab murojaat qilgan.

Ushbu forumda “Inklyuziv va teng huquqli jamiyat barpo etishda raqamli texnologiyalarning roli”, “Kelajak kasblar atlası”, “digisurvey.uz veb-sayti taqdimoti”, “Iqtidorli yoshlar uchun startaplar”, “Raqamli ta’limdagi imkoniyatlar” mavzularida spikerlar chiqishi hamda “IT kasblar – talab va taklif” mavzusida panel muhokamasi bo‘lib o‘tishi ma’lum qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, talabalarga ushbu forum haqida ma’lumotlarni yetkazishda hamda forumga qiziqish bildirgan talabalar ishtirokini ta’minlashda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

Forumda ishtirok etish istagini bildirgan talabalar ushbu havola orqali ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin: <https://qr.me-qr.com/gJqEjsT2>

Bog‘lanish uchun: Raqamli texnologiyalar vazirligi “Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” DM bosh mutaxassisi M.Muxtorova (Tel: 71 203-03-43(104)).

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 15-iyuldagi 34-8/4963-sonli xati ilova qilinadi.

Vazir o‘rinbosari



S. Buzrukxonov